

Sobirova Aziza Farxodovna

Urganch davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası
o'qituvchisi

Madaminova Shaxodat Shomurotovna

Urganch davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası
o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'Z TURKUMLARI USTIDA ISHLASH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada ona tilining izchil kursida beriladigan bilim, malaka, ko'nikmalar, ona tili darslarining maqsadi, shu jumladan, ot so'z turkumining umumta'lim maktablarida o'qitish usullari haqida fikr yuritilgan bo'lib, ot so'z turkumining o'qitish jarayoni ketma-ketlikda amaliy topshiriq va misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: iboralar, otlar, morfologiya, uy vazifasi, ona tili, talaba, maktab.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПРИ РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ РАБОТЫ НАД ЧАСТЯМИ РЕЧИ

Аннотация. В статье рассматриваются знания, умения, навыки, которые даются в Связном курсе родного языка, цель уроков родного языка, в том числе методы обучения в общеобразовательных школах по роду слов существительного, освещается процесс обучения роду слов существительного через практические задания и примеры в последовательности.

Ключевые слова: словосочетания, существительные, морфология, домашнее задание, родной язык, ученик, школа.

IMPROVING THE CRITICAL THINKING OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF METHODS OF WORKING ON PARTS OF SPEECH

Abstract: The article examines the knowledge, skills, and abilities provided by a sequential course of the native language, the purpose of the native language lessons, including the methodology of teaching the noun in general education schools, the process of learning the noun is illustrated with practical tasks and examples.

Keywords: phrases, nouns, morphology, homework, native language, student, school.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich ta'lim samaradorligini ta'minlashda unga innovatsion yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish" [4] kabi muhim vazifalar belgilangan. Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. Masalan, o'quvchilar mustaqil so'z

turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, fe'ning gap bo'lagi vazifasida kelishini, bog'lovchi gap bo'lagi bo'lmasligini biladilar.

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (terminlar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarnipg shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

So'z turkumlari				
Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe'l
1. Shaxs, narsa va joy nomini bildiradi	1. Shaxs va narsaning belgisini bildiradi	1. Shaxs, narsaning sanog'i va tartibini bildiradi	1. Kishilik olmoshlari shaxsni bildiradi va ot o'rnida qo'llaniladi	1. Shaxs, narsaning harakatini bildiradi
2. Kim?, nima?, qaer? so'roqlariga javob bo'ladi	2. Qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi	2. Necha? yoki nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladi	2. Kishilik olmoshlari kim? so'rog'iga javob bo'ladi	2. Nima qil-di?, Nima qiladi?, Nima qilyapti? Nima qilmoqchi kabi so'roqlarga javob bo'ladi
3. Birlik va ko'plikda qo'llanadi	3. O'zgarmaydi	3. Asosan o'zgarmaydi	3. Ular birlik va ko'plikda bo'ladi	3. Bo'lishli va bo'lishsiz shaklda qo'llanadi
4. Egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi	4. Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi	4. Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi	4. Kishilik olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi	4. SHaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadi
5. Kelishiklar bilan turlanadi	5. Sifatlar yasaladi	5. Sonlar yasalmaydi	5. Ular gapda bosh va ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida keladi	5. Uch zamonni bildiradi
6. Gapda ega yoki ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi			6. Olmoshlar yasalmaydi	6. Gapda kesim vazifasida keladi
7. Otlar yasaladi				7. Fe'llar yasaladi

O'quvchilarda so'z turkumlarini bilish ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, *gul*, *guldor*, *gulladi* so'zlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun II sinf o'quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: **nima?** – *gul*, bu so'z narsani bildiriyapti, ko'plikda qo'llanadi – *gullar*, bu ot; *guldor* so'zi **qanday?** so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning

belgisini bildiriyapti, bu – sifat; *gulladi* soʻzi **nima qildi?** soʻrogʻiga javob boʻlyapti, narsaning holatini bildiriyapti, boʻlishsiz shaklda qoʻllanadi – *gullamadi*, bu – feʼl.

“Ot” mavzusini oʻrganish tizimi maqsadga yoʻnaltirilgan jarayon boʻlib, bunda shu soʻz turkumining umumlashtirilgan maʼnosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bogʻliqlikda oʻrganiladi, shuningdek, otdan nutqda toʻgʻri foydalanish va toʻgʻri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi.

Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni oʻrganish vazifalari, oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni oʻrganish izchilligi belgilangan.

Shunday qilib, boshlangʻich sinflarda ot yaxlit holda oʻrganiladi va uni oʻrganish oʻquvchilar shu soʻz turkumining belgilarini, vazifasini oʻzlashtirishiga, shuningdek, ularda kelishik qoʻshimchalarini toʻgʻri yozish koʻnikmasini shakllantirishga qaratiladi.

Sifatni oʻrganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni koʻzda tutadi. Oʻquvchilar I va II sinfda sifatning leksik maʼnosini kuzatadilar, sifatga *qanday?*, *qanaqa?* soʻrogʻini berishga oʻrganadilar; III sinfda sifat soʻz turkumi sifatida oʻrganiladi; IV sinfda ilgari oʻrganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bogʻliq holda *qip-qizil*, *yam-yashil* kabi orttirma darajadagi (atama aytilmaydi) sifatlarning yozilishi oʻrgatiladi. Ona tili va oʻqish darslarida oʻquvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan maʼlum boʻlgan sifatlarning maʼnosiga aniqlik kiritiladi.

Sifat bilan (atamasiz) dastlabki tanishtirish (**birinchi bosqich**) sifatning leksik maʼnosi va soʻroqlari ustida kuzatish oʻtkazishdan boshlanadi. **Ikkinchi bosqich**da asosan ikki vazifa: “sifat” tushunchasini shakllantirish hamda oʻquvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda oʻrinli foydalanish koʻnikmasini oʻstirish hal qilinadi. **Uchinchi bosqich**da sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, ogʻzaki va

yoza nutqda sifatlardan aniq, oʻrinli foydalanish koʻnikmasini oʻstirish bilan bogʻliq holda *-roq* qoʻshimchasi bilan qoʻllangan sifatlarni va *koʻm-koʻk*, *yam-yashil* kabi sifatlarni toʻgʻri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va oʻquvchilar nutqini oʻstirishga qaratiladi.

Shunday qilib, sifatni oʻzlashtirishda uni ot bilan oʻzaro bogʻliq holda oʻrganishga asoslaniladi.

Didaktik oʻyinlar vositasida son va olmoshni oʻrgatish yoʻllari .

„Son“ni oʻrganish tizimi ham son haqidagi materialni leksik va grammatik tomondan sinfdan-sinfga oʻtgan sayin boyitib, murakkablashtirib borishni nazarda tutadi.

Boshlangʻich taʼlimda son uch yoʻnalishda oʻrganiladi:

1. Sonlarning talaffuzi va maʼnosi ustida ishlash.
2. Sonning grammatik shakllari ustida ishlash.
3. Sonlarning imlosi ustida ishlash.

Boshlangʻich sinflarda olmosh soʻz turkumini oʻrganish tizimi.

Boshlangʻich taʼlimda faqat **kishilik olmoshlari** oʻrganiladi. 4-sinfda kishilik olmoshlari haqidagi dastlabki umumiy tushuncha beriladi; ularning kelishik qoʻshimchalari bilan turlanishi va imlosi oʻrgatiladi.

Kishilik olmoshlarini oʻrinsiz soʻz ishlatishlarini bartaraf etish uchun oʻquvchilarning ijodiy yozma ishlari: bayon va insholari oʻqib berilib, tahlil qilinadi. Oʻquvchilar nutqida kishilik olmoshlarini man, san tarzida sheva taʼsiriga berilib talaffuz qilish holatlari uchraydi. Kishilik olmoshlariga ajratilgan darslarini yana bir vazifasi shu kabi kamchiliklarni yoʻqotishdir.

Demak, oʻquvchilarni kishilik olmoshlaridan nutqda toʻgʻri foydalanishga oʻrgatish nutqiy obrazlilikni, talaffuzidagi yoqimsizlikni bartaraf etadi.

Boshlangʻich sinflarda feʼlni oʻrganish tizimi.

Feʼl ustida ishlashga tayyorgarlik savodga oʻrgatish davrida boshlanadi.

Demak, feʼlni oʻrganish 1-sinfda harakatni bildirgan soʻzlarga savol berish bilan boshlanadi. Dasturda bu jarayon yuzaki boʻlmasligi, oʻquvchilar harakatni bildirgan soʻzlarni bir yoki koʻpchilik tomonidan bajarilayotganini anglab, shunga koʻra soʻroq berishni bilishlari, oʻqituvchi

tomonidan berilgan so'roqqa qarab, so'zni mos ravishda o'zgartirish, ularni bir-biridan farqlash ko'nikmasini shakllantirish talab etiladi. Masalan, bir shaxs tomonidan bajariladigan harakatga ko'ra nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?; ikki yoki yndan ortiq shaxs tomonidan bajariladigan harakatga ko'ra nima qildilar?, nima qilyaptilar?, nima qilmoqchilar? so'roqlarini berish. Keyingi, 2-3-sinflarga kelib, o'quvchilar fe'lni so'z turkumi sifatida o'rganadilar. Bunda o'quvchilarda "Fe'l- so'z turkumi" tushunchasi shakllantiriladi va bo'lishli, bo'lishsiz fe'llarni ma'nosi, shakli orqali farqlash ko'nikmasi hosil qilinib, bo'lishsizlik qo'shimchasi (-ma)ning talaffuzi va imlosini o'rgatiladi. O'qituvchi harakatni bildirgan so'zlarni fe'l ekanini o'rgatish uchun o'quvchilar bilan suhbatlar turli didaktik o'yinlar o'tkazish orqali aniq tasavvur hosil qiladi va gap bo'lagi jihatdan tahlil qilib, xulosa yasaydi, ya'ni nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? kabi so'roqlarga javob bo'lib, predmet harakatini bildirgan so'zlarni fe'l deyilishi va gapda kesim vazifasida kelishi haqida tushuncha beriladi. 3-sinfda dasturga ko'ra, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar haqida tushuncha beriladi. Bu mavzuni singdirishda ham suhbatdan foydalaniladi.

O'quvchi o'quvchi faoliyatidan sevimli mashg'uloti- o'yinni siqib chirmasdan undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga ko'ra ikki turga ajratamiz.

1. Mazmuniga ko'ra. 2. Amalga oshirish shakliga ko'ra.

Mazmuniga ko'ra didaktik o'yinlar:

- a) tinch o'yinlar;
- b) harakatli o'yinlar;
- d) aralash turdagi o'yinlarga ajratiladi.

Amalga oshirish shakliga ko'ra:

- a) musobaqa o'yinlari;
- b) sahna o'yinlariga bo'linadi.

1. "**Keragini tanlab tuz**" o'yini

2. Bu o'yinni o'tkazishdan asosiy maqsad grammatik qoidalarini o'quvchilarning mustahkam va ongli egallab olishlarini ta'minlash hisoblanadi. O'quvchilar ushbu mashq orqali har bir so'zga ehtiyotlik bilan yondashishga va ularni o'z o'rnida ishlatish ko'nikmasini egallab olishadi.

- 1. Fe'l nomini
- 2. Sifat sonini, tartibini
- 3. Son belgisini
- 4. Ot ish-harakatini


Shaxs va narsaning bildirgan so'zlar deyiladi. Olmosh so'z turkumining qoidasi alohida aytiladi.

Didaktik o'yinlardan yana biri "**Quruvchi**" o'yinidir. Bu o'yin o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, darsda o'tilgan "Shaxs va narsa harakatini bildirgan so'zlar" mavzusini yoki yangi mavzun mustahkanlash qismida o'tkazilishi mumkin. O'qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko'rib, qog'ozdan yoki penoplast bo'lakchalaridan "g'ishtshalar" yasaydi va ularga savol yozilan qog'ozchalarni yopishtirib chiqadi. G'ishtchalar soni o'quvchilar soniga teng yoki ko'p bo'lishi kerak. Guruhlarga "minora" yoki "devor" qurilishi uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va "gishtcha" ni olib, savolni o'qiydi. Agar bolalar savolga to'g'ri javob topsalar o'zlarining "maydoncha" lariga "g'isht"ni teradilar. Agar noto'g'ri javob bersalar, o'qituvchi "g'ishtcha"ni olib qo'yadi. O'yin shu tahlilda barcha o'quvchilar bittadan "g'ishtcha" olib bo'lgunlariga qadar davom etadi. "Qurilish maydonchasi" da eng ko'p g'isht tergan o'quvchilar guruhi g'olib hisoblanadi.




Har bir guruh o'zlari topgan so'z turkumlariga oid so'zlardan bir nechtasini qog'ozga yozadilar. Klaster usuli.

Masalan: "Tovushlar" guruhi



2. "Bo'g'in" guruhi



3."Alifbo" guruhi



4."Nutq" guruhi



Demak, boshlang'ich sinflarda fe'lga,umuman barcha so'z turkumlariga oid o'tkaziladigan didaktik o'yinlar dars samaradorligini oshirish uchun asosiy manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamrayev M.Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009. -240 bet.
- 3.G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- <http://agroxizmat.uz/oz-OZ/president>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.- <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyevning-oqituvchi-va-murabbiylar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi->
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni// (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)